

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov Sinovlarda toblangan ijod.....	6
G.M.Kirgizova Iqbol Mirzo ijodiy mahoratining shakllanish omillari.....	9
S.R.Mirzayeva Common features in the life and work of Babur and Navoi.....	13
S.R.Meliboyeva Zamonaviy o'zbek she'riyatida sun'iy intellekt va inson hissiyotining badiiy ifodasi muammosi.....	18
Я.И.Нишанов, Х.Жўраев Выражение общечеловеческих и национальных особенностей в повествованиях о Юсуфе.....	23
D.M.Khoshimova "Boburnoma" asarining lingvistik xususiyatlari.....	27
Z.T.Hakimova Ingliz va o'zbek tilidagi tikuvchilik terminlarining leksikografik xususiyatlari.....	30
Z.T.Hakimova Ingliz va o'zbek tilidagi tikuvchilik terminlarining tarjimaviy muammolari.....	33
D.O.Umarov Roman janri haqida mulohazalar.....	36
D.M.Khoshimova An analysis of "Baburnama" in comparison with its translation.....	39
Я.И.Нишанов, К.С.Туллекова Любовь в лирике Саффо и Марины Цветаевой: сравнительный анализ.....	42
N.Farmonov Naturalism and consumer desire: Theodore Dreiser and the culture of American capitalism.....	47
Я.И.Нишанов Ассоциативно-вербальные сети концепта старость в языковом сознании носителей русского языка.....	51
D.D.G'ulomov Assotsiativ suujet: genezesi, nazariy paradigmasi va adabiy tahlili.....	55
K.Egamberdiyeva Badiiy adabiyotda ayol ruhiyati va ma'naviy olaminining aks ettirilishi.....	59
D.M.Abdullayeva Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari va unda ota obrazi.....	67
M.T.Tolibova Isajon Sulton hikoyalarining suujet qurilishi.....	71
A.A.Abduraxmonov Halima Xudoyberdiyeva lirikasida oq rang.....	74
F.X.Nurdinova Tarjimada leksik adekvatlikni ta'minlash (E.L.Voynichning "So'na" romanining rus va o'zbek tillari tarjimasi misolida).....	77
F.X.Nurdinova Tarjima jarayonida milliy o'ziga xoslikni saqlash masalalari.....	81

TILSHUNOSLIK

M.M.Abdullayeva Integrating Social-Emotional Learning in foreign language classrooms: benefits and strategies.....	86
M.Y.Mamajonov	



UO'K: 821.512.133-1.09

IQBOL MIRZO IJODIY MAHORATINING SHAKLLANISH OMILLARI

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА ИКБОЛА МИРЗО

FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF IQBOL MIRZO'S ARTISTIC CREATIVITY

Kirgizova Gulnoza Mamadaliyevna

Farg'ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo ijodiy mahoratining shakllanishiga xizmat qilgan omillar aniqlanib, tahlil qilingan. Xalq og'zaki ijodi, o'zbek mumtoz adabiyoti, jahon adabiyoti ta'siri hamda milliylikning ifodalanihi, band va qofiyaning qurilishi shoir ijodining o'ziga xosligini ifodalashga xizmat qilgan.

Аннотация

В статье выявляются и анализируются факторы, способствовавшие формированию творческого мастерства народного поэта Узбекистана Икбола Мирзо. Влияние устного народного творчества, узбекской классической и мировой литературы, а также выражение национальной идентичности, своеобразие строфики и рифмовки рассматриваются как важные признаки, определяющие оригинальность поэтического творчества автора.

Abstract

The article identifies and analyzes the key factors that contributed to the formation of the creative mastery of Iqbol Mirzo, People's Poet of Uzbekistan. The influence of oral folk literature, Uzbek classical literature, and world literature, as well as the expression of national identity, the distinctive structure of stanza and rhyme, are shown to play a significant role in shaping the originality of the poet's work.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, jahon adabiyoti, an'ana, mahorat, band, qofiya, obraz, musiqiylik, ohangdorlik.

Ключевые слова: устное народное творчество, классическая литература, мировая литература, традиция, мастерство, строфа, рифма, образ, музыкальность, мелодичность.

Key words: oral folk literature, classical literature, world literature, tradition, mastery, stanza, rhyme, imagery, musicality, melodiousness.

KIRISH

Dunyo adabiyotshunosligida she'riy kontekstda qofiya, vazn va band tizimlarining o'rini yoritish muhim hisoblangan. Zero, she'riy asar ta'sirchanligi va jozibadorligi, fikrning haqqoniy ifodasi va salmoqdorligi uning tuzilishi bilan bog'liq ana shu jihatlarda yuz ko'rsatadi. Shoir ijodiy laboratoriyasini o'rganish vositasida uning so'z ustida ishlash mahoratini yoritish, ijodkor dunyoqarashi, tarjimai holi, yashagan muhiti, ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan bog'liq holda muayyan asarlarning yaratilish tarixi hamda poetik mahorati qirralarini tadqiq etish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she'riyatiga xos ravonlik, murakkab tashbeblaru tasviriy vositalardan bir qadar holi ifoda soddaligi oqibatida yuzaga kelgan talqin jozibadorligi o'zbek xalq og'zaki ijodi manbalarini chuqur o'rganish hamda ulardan ta'sirlanishning mahsulidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek adabiyotshunosligida O.Sharafiddinov, U.Normatov, S.Mamajonov, N.Karimov, B.Nazarov, U.To'ychiyev, B.Sarimsoqov, I.G'afurov, A.Rasulov, Q.Yo'ldoshev, J.Kamol, N.Rahimjonov, Y.Solijonov, N.Jabbor, B.Karimov, N.Afoqova, U.Hamdov, M.Tojiboyeva, Q.Yulchiyev, G.Oripova va boshqa olimlar tomonidan XX asr o'zbek she'riyatining mavzu ko'lami va obrazlar tizimi, uslub va badiiyat, janr va shakliy xususiyatlar, an'ana va yangilanishlar masalasi tadqiq etilgan.

Shuningdek, H.Yoqubov, M.Qo'shjonov, N.Karimov, N.Shukurov, T.Halilov, N.Rahimjonov, Q.Samadov, A.Sabirdinov, M.Davronova kabi olimlarning tadqiqotlarida ijodkor mahorati, lirikaning spetsifik xususiyatlari yoritilgan.

Iqbol Mirzo she'riyatiga xos jihatlar U.Normatov, A.Sabirdinov, U.Rasulova, M.Davronova[1] tadqiqotlarida o'rganilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Shoir ijodida muhabbat motivining keng o'rin olishida "Tohir va Zuhra", "Vomiy va Uzro", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Zarina va Strangiya", "Zariadr va Odatida", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Alpomish" kabi qahramonlik eposlari va dostonlari, xalq qo'shiqlari katta o'rin tutdi.

Shoirming "Tesda qiziqning o'giti" (1988), "Maqolga izoh", "Sodiq chegachi" (1988), "Boychechak", "Ramazon" (1991), "Laylatulqadr" (1988), "Qabr toshidagi yozuv" (1991), "Bo'lgan" (1992) she'rlarida xalq ertaklaridagi obrazlardan, xalq qo'shiqlaridagi ohangdorlik, ifoda ravonligi, xalq maqol va matallaridan foydalanishdagi ijodiy ta'sir va badiiy mahorat yorqin namoyon bo'lgan.

XX asr 80-yillarining dolzarb masalalaridan biri bo'lgan "Orol" dengizining xo'jasizlik, ortiqcha isrofgarchilik oqibatida mo'jaz ko'lga aylanib borayotganligini shoir "Maqolga izoh" she'rida so'z o'yinlari va kinoya vositasida shunday ifodalaydi: "Ko'p tupursa, ko'l bo'lur" (Maqol). Tushunarsiz bo'lsa qay go'lga, Mana, misol: tupurdik Orol – Aylanmoqda mo'jaz bir ko'lga" [2, 54].

XX asrning 80-yillarida ortiqcha isrofgarchilik, cho'llarni o'zlashtirish bahonasidagi xo'jasizlik oqibatida tobora suvi kamayib mo'jaz holga kelayotgan Orol fojiasiga shoir ana shu tarzda kinoyaviy munosabatini bildiradi. Bu o'z navbatida iloji boricha ko'proq paxta hosilini oshirish va shu orqali sobiq ittifoq markazidagi sanoat korxonalarini arzon xomashyo mahsuloti bilan ta'minlashni maqsad qilgan mustamlakachi korchalonlar va ularning hamtovoqlariga kinoya edi.

O'zbek xalq qo'shiqlariga xos hayotiylik, haqqoniylik, ravonlik, jonlilik Iqbol Mirzo she'riyatida yangi mavzu, yangi obraz va yangi tasvir, yangi talqin yaratilishiga ta'sir ko'rsatgan. Chunki "Adabiy hodisa yangi bo'lsagina an'anaga aylanadi... Yangilik adabiyotga yangi mavzu, yangi qahramon, yangi badiiy vosita, yangi fikr, yangi so'z va yangi ifoda olib kirishi lozim. Bu hol badiiy mahorat asosida turadi. Xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot, Sharq va Yevropa xalqlari adabiyoti an'analari boy, o'ziga xos, milliy, adabiyot uchun hayotbaxshdir. Xalq og'zaki ijodining qahramonlik, do'stlik, optimizm, mubolag'adorlik an'analari o'lmasdir" [3,377].

Ana shunday o'lmas an'analardan bo'lgan muhabbat "Boychechak" [2,48] she'rining asosiy mavzusi hisoblanib, shoirming boychechak obraziga yangicha yondashuvi, o'ziga xos talqini bilan ajralib turadi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, shoir she'riyatining milliy jozibasida g'oyaviy-estetik ta'sirchanligida, chuqur falsafiy salmoqdorligida Sharq mumtoz adabiyotining alohida o'rni bor. Jumladan, Alisher Navoiyning "Husni ortar ..." satrlari bilan boshlanuvchi g'azali, Muqimiyning "Na bo'ldi?" radifli murabباسi, Boburning "Ko'ngil berdim ..." va Boborahim Mashrabning "Ey gulbadanim ..." deb boshlanuvchi g'azallari, Mahtumqulining "Bormi?" she'ri Iqbol Mirzo ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Iqbol Mirzo Alisher Navoyiga xos satrlar davomida falsafiy fikrni turli ijtimoiy voqealar orqali dalillash usulida Zahiriddin Bobur ijodiga xos o'zakdosh so'zlar takroridan foydalanib, ta'sirchan fikr, ohangdorlik yaratish mahoratida, Muqimiy she'riyatidagi xalqona, sodda, ravon ifoda va tasvir yaratish iste'dodida, Mahtumquli she'riyatidagi davrning muhim axloqiy-ma'naviy muammolarini ravon ifodalash an'anasida, Boborahim Mashrabning she'riy san'atlardan samarali foydalana bilish iqtidoridan ta'sirlandi va ijod namunalari yaratdi.

Iqbol Mirzo she'riy mahorati takomilida A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, A.Axmatova, M.Svetayeva kabi rus, I.V.Gyote, G.Geyne, J.G.Bayron kabi g'arb shoirlari ijodidan ta'sirlanish ham muhim o'rin tutgan.

A.S.Pushkinning "O'smurga" (1830), "Men sizni sevardim", "Pushchin albomiga" (1817), "Meri uchun ichaman" (1830), "Sibir konlarining tagida" (1827) she'rlari bilan Iqbol Mirzoning "Qishloq bolalari" (1993), "Malol kelmasin" (2004), "Paxta", "Senga barmog'imni tegizmayman" (1997) she'rlari, ingliz shoiri Jorj Gordon Bayronning "Ayriliq" (1808) she'ri bilan Iqbol Mirzoning "Qiyin bo'ldi" (1987), Genrix Geynening "O'z-o'zimcha – o'zimcha..." misralari bilan boshlanuvchi she'ri bilan Iqbol Mirzoning "Araz" (1987) she'rlari jahon adabiyotining ta'siri shoir she'riy mahorati

ADABIYOTSHUNOSLIK

takomilida muhim ahamiyatga ega bo'lganligi, she'ning ham shakl, ham mazmun jihatdan yangilanishiga xizmat qilganligini ko'rsatadi.

Iqbol Mirzo she'r musiqiyli va ohangdorligini ta'minlash borasida ham qator izlanishlar olib borib, muvaffaqiyatlarga erishdi. Zero, "Lirik asarlarda so'zga parvosiz qaralmaydi. Lirikada so'z ritmli, ohangdosh qatorlarni tashkil etadi. So'z yolg'iz mazmunni ifoda qilish vositasi emas, balki ma'lum tovush, ohang kompleksi kabi badiiy element bo'lib xizmat etadi. She'r, lirika tilining musiqiyli, so'zlarning quyilishi, sifatga molik tovush tiplarining tartiblanishi, ularning maxsus birikishi, umuman, tovush qonuniga bo'ysunish ila vujudga keladi" [4,79].

Adabiyotshunos Bahodir Karim yozganidek, "O'zlikni ifodalashning eng maqbul yo'li so'z – obraz, bo'g'in – obraz, tovush – obraz ustida ishlashdir. Bizda esa ko'pincha ega-kesimning o'rnini almashgan darak gaplar she'r ataladi. Jarangdor so'z izlash va topish, so'z ijodkorligi shoirning qiyofasini ko'rsatadi" [5,92].

Iqbol Mirzo ham yuqoridagi singari obrazning turli xillarini topish borasida tinimsiz izlanishlar olib borib, qator yutuqlarga erishdi. "Bevafo" (1992), "Diydor" (1992), "Ey dil..." (1992), "Jonim" (1991), "Tubida tosh dumalatib..." (1996), "Qutlov" (1985), "Shimoldan shoshqaloq" (1988), "Xotira" (1985), "Nima qilsam..." (1986), "Ta'rif" (1986), "Alvido" (1990), "Bola-chaqa" (2008), "Bechora" (1987), "Topilgaymi..." (1983), "Qabog'ingiz uchdi" (1983), "Xayr..." (1988) she'rlarida shoir mahorati ohangdorlik va musiqiylikni yuzaga chiqarishda g'oyaviy ifoda ta'sirchanligini, obrazlar hayotiyiligini ta'minlagan.

Iqbol Mirzoning "Ko'z qorasi" (2001), "Musicha", "Paxta mavsumida" (1988), "Tutlar" (1988), "Izsiz ketdi" (1995), "Oddiy arifmetika" (1998), "Ariqlar yuzida" (1992) she'rlarida fikr va tuyg'u uyg'unligidan obraz, obrazli ifoda ta'sirchanligi, tasvir hayotiyiligini yuzaga chiqarishdagi shoir mahorati so'zning muayyan fikrning jonli, xalqona ifodasiga, tuyg'ularning jozibador tasviriga xizmat qilgan.

Iqbol Mirzo she'rlarida milliylik, avvalo, o'zbekona obrazlar tasvirida, tabiatning sharqona manzaralarida, shuningdek, shoirning voqelikka, tasvir obyektiga yondashuvida hamda dunyoqarashida, qo'llangan narsa-predmetlardan foydalanish uslubida namoyn bo'lgan. Shoirning "Faxriya" (2007), "Go'ri Mir. Gumbazlar" (2007), "Buyuk Ipak yo'li" (2007), "Rasadxona. Ulug'bek yulduzi" (2007), "Shohi Zinda. Sado" (2007), "Hazrati Xizr maqbarasida" (2007), "Omoch bo'lib tildi osmonni hilol" (1987), "She'rim" (1988), "Aza" (1989) she'rlarida lirik qahramon millat farzandi sifatida fikrlab, voqelikka faol munosabat bildirgan. Ushbu she'rlardagi tasviriy ifoda va vositalar milliy qiyofalarni ochishga xizmat qilgan.

Har bir detaldan tortib obrazlargacha milliy holat va kartinalarning yaratilishida muhim o'rin tutishi, faunistik va floristik obrazlar milliyli bilan ajralib turishi Iqbol Mirzo she'rlari jozibadorligi, ta'sirchanligi va haqqoniyligini yuzaga chiqargan.

Iqbol Mirzo zamonaviy o'zbek she'riyatidagi qofiyaning gorizontall joylashuviga ko'ra **juft, kesma, aylanma, aralash, erkin** qofiyalarning deyarli barchasidan samarali foydalangani holda she'rdagi ohangdorlikni, fikr izchilligini, ifoda jozibadorligini ta'minlagan.

Shoirning uch jildlik asarlarining "Ko'zlarimga termulsaydim" nomli birinchi jildini qofiya jihatidan tahlil etadigan bo'lsak, unga jamlangan 282 ta she'rning 172 tasi kesma, 98 tasi aralash, 10 tasi juft, 2 tasi erkin tarzda qofiyalangan.

"Ko'nglingda nima bor, bilmayman" nomli ikkinchi jilddagi 256 ta she'rning 139 tasi kesma, 101 tasi aralash, 15 tasi juft, 1 tasi aylanma qofiyadan iborat.

Shoir "Meni eslaysanmi?" (1992), "Bahorning ilk kuni" (2003), "Mumtoz shoirning noshud muxammachiga aytgani" (2013), "Muhammad Yusuf" (2001), "Bir ko'rinish" (2002), "Ko'zimga ishonmayman" (1996), "Suyuma ona" (2019), "Sichqon qochdi" she'rlarida qofiyaning xilma-xil turlaridan she'r kontekstida samarali foydalangani holda satrlardagi ohang uyg'unligi hamda fikrning aniq, ta'sirchan ifodasini yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, zamonaviy qofiyaning keng imkoniyatlaridan o'rinli foydalanib, ulkan muvaffaqiyatlarga erishadi.

Shoirning "Ilon" (1981), "Qo'shtegirmon, 1982 yil" (1982), "Arosat" (1984), "Aylana" (1996), "Kammi?" (2015), "Maqtachilar" (2016), "Bittagina armonim" (1990), "Sobiq askar" (1990) she'rlarida barmoq, erkin vazn imkoniyatlaridan samarali foydalangani holda ohangdorlik, fikr ta'sirchanligi hamda lirik qahramon tuyg'ulari hayotiy ifodani yuzaga chiqargan. Turoqlanish va u

orqali yuzaga kelgan vaznning ohang tovlanishlari fikr salmog'ini oshirgan, kechinma va tuyg'ularning haqqoniy ifodasini ta'minlagan.

Zamonaviy she'riyatda bandlardagi misralar soni turlicha bo'lgan astrofik hamda o'lchovi turlicha misralardan tarkib topgan geometrik she'rlar ham mavjud. Iqbol Mirzo ijodida jahon she'riyati ta'siridagi ana shunday she'rlarni ham uchratamiz.

Shoimning "Kabutar kuyining o'g'risi..." (1990), "Kechagina" (2009), "She'r parchalari" (1988-2018), "Kelinchak" (1992), "Seni bugun ko'rmasam bo'lmas" (1993), "Azoblarim" (1995), "O'smirligim ertagi" (1983), "Asragil" (2006), "Vatan" (2008), "Hayot davom etadi" (2009), "Ko'klam" (1995) she'rlarida turli xil band tizimlari o'z imkoniyatlarini namoyon etadi. Bu imkoniyatlar turli turoqlanish asosidagi vazn xilma-xilligini, qofiyalanishdagi turfa ohangdorlikni, turli tasviriy ifoda va vositalar orqali yuzaga kelgan ma'no tovlanmalarini, fikr salmoqdorligini, obrazning betakror qiyofasini, shoir kechinma va tuyg'ularining ta'sirchan talqinini yuzaga keltiradi.

XULOSA

Fikrimizcha, Iqbol Mirzo ijodiga xos jihatlar quyidagilardan iborat:

o'zbek xalq qo'shiqlari, dostonlariga xos fikrning aniq, lo'nda, ravon ifodasi, o'ynoqi ohangdorlik, sharq mumtoz adabiyotiga zos chuqur falsafa, yuksak badiiyat, jahon she'riyatiga xos ijtimoiy-siyosiy masalalarga faol munosabatning ijodiy ta'siri Iqbol Mirzo poetik mahoratining yuksalishida muhim o'rin tutgan, davrning dolzarb muammolarga bag'ishlangan asarlarning yaratilishida ta'sir manbai vazifasini bajargan;

shakliy va evfonik vositalar: refren, naqorat, izosillabizm, parallelizm, anafora, so'z takrori, alliteratsiya va assonansning she'r musiqiyliigi hamda ohangdorligini ta'minlashdagi muhim o'rnidan samarali foydalanish Iqbol Mirzo mahoratining asosiy jihati bo'lib, mavzu va g'oya salmoqdorligini, obraz va obrazli ifodadagi ta'sirchanlikni, tuyg'u va kechinmalardagi hayotiy ifodaning, lirik qahramonning voqelikka munosabatini yoritishga xizmat qilgan;

shoimning o'zi mansub xalqning vakili sifatida qalam tebratishi, sharqona kartina va tabiat manzaralari, urf-odat va qadriyatlar tasvirida milliylikning namoyon bo'lishi, she'riy san'atlardan foydalanish orqali fikr va tuyg'u uyg'unligidagi ta'sirchanlik, obraz va obrazlilikdagi hayotiylikni ta'minlagan;

Iqbol Mirzo she'rlarida qofiyaning shakliga ko'ra kesma, aralash, ma'nosiga ko'ra omonimik va paronimik turlaridan ko'proq foydalanib, kechinmalardagi g'alayonli fikrlarni ohang bilan uyg'unlikdagi ifodasini, barmoq va erkin vaznning vertikal joylashuviga ko'ra yetti bo'g'indan to o'n ikki bo'g'inli turoqlanishlargacha, gorizontall joylashuvga ko'ra izometrik va erkin turoqlanishlardan foydalanib, lirik "men"ning qarama-qarshi, tug'yonli kechinmalari ifodasini, bandlanishning astrofik va geometrik ko'rinishlaridan uyg'unlikda, ikkilikdan to o'n ikkilik bandlanish turlariga murojaat etib, davr muammolarini bir chizgi vositasida yoki batafsil yoritishga erishgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Норматов У. Танланган асарлар. – Тошкент: "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2021. – Б.226-233; Сабиридинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б.57-61; Rasulova U. Hozirgi adabiy jarayon. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – В.45-46; Давронова М. Ҳозирги ўзбек шеъриятида индивидуал услуб поэтикаси(Усмон Азим, Иқбол Мирзо, Фахриёр ва А.Қутбиддин шеърияти мисолида): Филол.фан.док.(DSc) ... дисс.автореф. – Самарқанд, 2019. –Тошкент: "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2020.
2. Иқбол Мирзо. Кўзларингга термулсайдим... Биринчи жилд. –Тошкент: "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2020.
3. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.
4. Ойбек. Мукамал асарлар тўплами. Ўн тўққиз томлик. Ўн тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1979.
5. Баҳодир Карим. Рухият алифбоси. Адабий-илмий мақолалар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.